

December, 30th 2021

MODERN APPROACHES AND TEACHING METHODS IN TEACHING FRENCH

Roziyeva Nasiba Kenjayevna,

Head of the Department of Humanities, Faculty of Pedagogy and Language Teaching, Samarkand State University

Annotation: The textbook "Le manuel des activités sportives" is one of the new research projects in this area, which in its entirety - the essence, structure, concept - meets the requirements of modern educational literature. will give.

Keywords: Le manuel des activités sportives, communicative, auction, grammatical, sociolinguistic, chronological, functional, concept, lexical exercises

FRANSUZ TILINI O`QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TA`LIM METODLARI

Ro`ziyeva Nasiba Kenjayevna

Samarqand davlat universiteti Pedagogika va tillarni o`qitish fakulteti Gumanitar fanlar kafedrasи mudiri

Anotasiya: "Le manuel des activités sportives" o`quv qo`llanmasi ham ushbu yo`nalishdagi yangi izlanishlardan biri bo`lib, u o`zining butun mazmun – mohiyati, tuzilishi,konsepsiysi bilan zamonaviy o`quv adabiyotlari oldiga qo`yiladigan talablarga javob beradi.

Kalit so`zlar: Le manuel des activités sportives, kommunikativ, auksion,grammatik, sosiolingvistik,xronologik,funksional, konsepsiysi, leksik mashqlar

Bugungi kunda O`zbekistonda chet tillarni o`rgatish borasida tub islohatlar amalga oshirildi,hukumatning maxsus qaror va farmonlari qabul qilindi.Bu esa mazkur sohadagi tub burilishlarga sabab bo`ldi, chet tillarni o`qitish va ularni ilmiy tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi. Ro`ziyeva Nasiba Kenjayevnaning "Le manuel des activités sportives" o`quv qo`llanmasi ham ushbu yo`nalishdagi yangi izlanishlardan biri bo`lib, u o`zining butun mazmun – mohiyati, tuzilishi,konsepsiysi bilan zamonaviy o`quv adabiyotlari oldiga qo`yiladigan talablarga javob beradi.

Mazkur fransuz tili fani o`quv qo`llanmasi sport faoliyati: kurash yo`nalishi uchun tuzilib, mazkur qo`llanmaning asosiy maqsadi talabalarga kasbiy yo`nalish doirasida tilning og`zaki to`g`ri talaffuz shakillarini o`rgatish, ularning muloqot malakalarini rivojlantirish,xususan o`rganilayotgan chet tilining o`qish, talaffuz qilish bilimlarini takomillashtirish hamda egallagan bilimni, ko`nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo`llay olishlarini ta`minlash maqsadida tuzilgan

Le manuel des activités sportives o`quv qo`llanmada nazarda tutilgan fransuz tili fanining asosiy vazifasi umum e`tirof etilgan xalqaro me`yorlarga ko`ra talabalarning o`rganilayotgan chet tilini B2 darajada egallahslari uchun zaruriy bilimlarni integrallashgan o`rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir.

Maskur o`quv qo`llanmasi vositasida fransuz tilini o`rganuvchilar oson va qulay tarzda o`z bilimlarini oshirishlari mumkin. Qo`llanma 2 bo`limdan iborat bo`lib, ushbu bo`limlarda til o`qitishdagi amaliy mashg`ulotlar, ularni o`qitish usullari, metodlari va yondashuvlar, maqsad va vazifalar aniq va tahliliy ko`rib chiqilgan, til ko`nikmalariga o`rgatishning tarkibiy qismlari bat afsil izohlangan. Mualif tomonidan ishlab chiqilgan o`quv qo`llanmasi oliy o`quv yurtlari sport faoliyati: kurash yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan.

December, 30th 2021

Birinchi bo`lim 17 ta darsni o`z ichiga olib, har bir dars 4 soatga mo`ljallangan. Har bir dars fonetik qoidalar bilan boshlanadi. Asosiy e`tibor ayrim unli va undoshlarning kasbiy atamalar tarkibidagi o`ziga xos xususiyatlariga e`tibor qaratiladi. Grammatik qoidalar va noto`g`ri tuslanuvchi fe`llarning tanlab olinishi aksariyat hollarda ularning axborot so`rash va axborot berish vaziyatlaridagi qo`llanish darajasi bilan belgilanadi va mashqlar bilan mustahkamlanadi. Har bir kasbiy matn uchun notanish so`z va iboralarning tarjimalari beriladi. Og`zaki nutq malakasini o`shiriish maqsadida turli savollar,dialoglar,leksik mashqlar, so`z va iboralar berilgan.

Kitobda materiallar xronologik tartibda, mantiqiy izchillikda berilgan bo`lib, zaruriy kasbga oid texte va dialog hamda lugatlар bilan ta`minlangan.Bu esa o`z navbatida o`quv qo`llanmaning qiziqarli va tushunarli bo`lishiga sabab bo`lgan

Le manuel des activités sportives nomli qo`lyozmaning ikkinchi bo`limi mustaqil ta`lim olish uchun matnlar, dialoglar, sport sohasiga oid terminlar izohi va lug`atlardan iborat.

O`quv qo`llanmada kommunikativ til o`qitish metodi XX asrning eng ommalashgan metodi sifatida talqin qilinadi. Haqiqatdan ham, kommunikativ til o`qitish metodning asosiy maqsadi o`rganuvchilar nazarda tutilayotgan holat (sharoit)larda kommunikativ ehtiyojlarni qondira bilish ularning kommunikativ qobiliyatini oshirishdan iborat Bunda darsdan ko`zlangan maqsadlar kommunikativ kopetensiyaning barcha kopanent (grammatik, muloqot, funksional, sotsiolingvistik va strategik) lariga qaratiladi. Qo`llanmada qiziqarli metodlardan biri “Auksion методи”ning maqsad va vazifalari, o`quv dasturi, o`qituvchi va o`rganuvchi rollari juda yaxshi ochib berilgan.Bu metod darsda o`quvchiga o`rganilayotgan tilde iloji boricha ko`p so`zlashish imkoniyatini berish asosiga qurilgan. Mazkur metodning asosiy g`oyalarini o`zlashtirish, til o`qitish jarayonida foydali bo`lishi shubhasiz

O`quv qo`llanmaning II bo`limi kata ahamiyatga ega. Zero, ushbu bo`limda til ko`nikmalariga o`rgatishning tarkibiy bo`limida til ko`nikmalariga o`rgatishning tarkibiy qisimlari mantiqiy izchillikda tahlil qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orziqulov H.Fransuz tilining nazariy grammatikasi,**Chop etilgan yil:** 2000,**Nashriyot:** Samarqand davlat chet tillar institute
2. D.F.Fliulova Fransuz tili darsligi.1999 yil.Toshkent
3. Belleville.Methode de françois.Aline Volte
4. Ubaydullayev M.Amaliy fonetika.2007 yil